

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga xos jihatlari.....	285
Sh.Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi faoliyati	293
K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion (the example of Jizzakh)	297

ADABIYOTSHUNOSLIK

S.Mirzaeva, N.Y.Usarova A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and uzbek folklore literature	301
A.G.Sabirdinov Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik	307
G'.O.Xolbutayev Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati	310
O.Barziyev, F.Baxtiyor Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi	317
S.A.Xodjayev Folklor namunalari uchlik timsoliga asoslangan ramzlar	323
H.K.Sabirov, B.A.Giёsova Движение джадидизм и узбекская детская литература	326
G.Ch.Muratova G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri	329

TILSHUNOSLIK

N.R.Gafurova O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari	333
Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova O'zbek va ingliz tillarida iboralarning qo'llanishi.....	338
Y.E.Ro'ziboyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning lingvakulturologik xususiyatlari.....	341
N.R.Gafurova Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari	344
M.G.Khoshimov Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical clause as an invariant type of syntactic unit	347
D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida	354
M.M.Aslonov The educational process and content of educational activities in the "House of Bukhara education"	358
Z.V.Alimova Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida	362
G.R.Mamadaliyeva Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili.....	367
P.Sh.Kaxramonova Badiiy asar tili va ekolingvistika	373
H.U.Davlatova Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar	376
H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari	380
Z.V.Alimova, M.Rasulova	

MULOQOTNING NAZARIY ASOSLARI HAMDA SOHAGA OID QARASHLAR
THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF COMMUNICATION AND FIELD VIEWS
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЩЕНИЯ И ВЗГЛЯДЫ В СФЕРЕ

Davlatova Hulkaroy Uktamovna¹

¹Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası o'qituvchisi, PhD,

Annotatsiya

Mazkur kichik tadqiqotda insonlar hayotida muhim o'rin tutadigan muloqotning nazariy asoslari hamda shu sohaga oid olimlarning ilmiy izlanishlari bayon etilgan. Maqolaning asosiy maqsadi, tilshunoslikda muloqot borasida dunyo olimlarining fikrlari, mulohazalarini tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu ishda solishtirish, taqqoslash metodlaridan foydalanildi va natijada muloqotning tarixiy rivojidan boshlab, hozirgi kungacha izlanish olib brogan allomalarni izlanishlarinidan namunalar keltirildi. Yakuniy so'z o'rnida esa, dunyo olimlarini izlanishlarini o'rganish asnosida, o'zimizning fikr-mulohazalarimiz keltirilgan.

Abstract

In this small study describes the theoretical foundations of communication, which plays an important role in human life, as well as the scientific research of scientists in this area. The main purpose of the article is to analyze the views and opinions of world scientists regarding communication in linguistics. This paper used comparison and comparison methods, resulting in examples of research by scientists who have conducted research from the historical development of communication to the present day. Instead of a final word, we present our own opinion while studying the research of world scientists.

Аннотация

В этом небольшом исследовании описаны теоретические основы общения, играющего важную роль в жизни человека, а также научные исследования ученых в этой области. Основная цель статьи – проанализировать мнения и мнения мировых ученых относительно коммуникации в лингвистике. В данной работе были использованы методы сравнения и сравнения, в результате были представлены примеры исследований ученых, проводивших исследования от исторического развития коммуникации до наших дней. Вместо заключительного слова мы излагаем собственное мнение в ходе изучения исследований мировых ученых.

Kalit so'zlar: muloqot, ijtimoiy, nazariy, fikr, vosita, shaxs, jamiyat, rivojlanish bosqichi, til, ong.

Key words: communication, social, theoretical, thought, tool, person, society, stage of development, language, consciousness.

Ключевые слова: общение, социальное, теоретическое, мысль, орудие, человек, общество, стадия развития, язык, сознание.

KIRISH

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllari paydo bo'lishi til va nutqni vujudga keltirdi, til esa, o'z navbatida, ongning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratdi. "Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'u regulatori emas, balki har bir shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshirishning asosiy manbaya rolini bajara boshladi"[8]. Til muloqotning eng muhim vositasidir. Bundan tashqari til aloqa vositasi sifatida aniq tuzilishga ega bo'lishi va tizim sifatida esa elementlari birligini tashkil qilishi kerak. Zero, tilga aloqa vositasi deb o'rinli ta'rif berilgan. Biz til orqali turli millat vakillari bilan muloqot qilamiz, har bir millatning o'ziga xos va mos madaniyati, urf-odati, san'ati, xalqlarning kundalik yashash tarzidan xabardor bo'lamiz. Insoniy muloqotning asosida rekursiv fikrlash, g'oyalarni boshqa g'oyalar ichiga kiritish qobiliyati turadi. Ushbu qobiliyat qanday tuzilmaga ega ekanligi haqida ko'proq bilish bugungi kunda duch keladigan murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi[21]. Yer yuzidagi mavjudotlar ichida faqat insongagina gapirish va fikrlash qobiliyati berilganligi sababli, u doimo o'ziga berilgan til va nutq asosida ma'lumot almashadi. Uning ko'rinishi turli hodisalar, narsalar va atrof-muhit hodisalarining ijtimoiy hayotga ta'siri bilan bog'liqlik noverbal vaziyatlarda namoyon bo'ladi[11].

Muloqot asosan oila muhitida shakllanishi va jamiyatda rivojlanish bosqichiga o'tishini va asosan, real hayotda uchrab turadigan voqea-hodisalar asnosida muloqotning o'ziga xosliklar, taraqqiyot jarayonlar, turli tashqi hamda ichki ta'sirlar to'g'risida ba'zi fikr-mulohazalar aytib o'tilgan.

TILSHUNOSLIK

Jumladan, oilada muloqotni o'rganish, turli tajribalar o'tkazish, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq muommolarni tahlil qilish uzoq davrdan buyon turli soha vakillarini qiziqtirib kelgan, lekin, shunga qaramay, bu yo'nalish hozirgacha to'liq o'rganilmadi, tadqiq etilmadi[12].

Olimlarning tadqiqotlari natijasida insonda rekursiv gapirish va fikrlash qobiliyati tug'ma xarakterga ega ekani aniqlangan. Ammo bizning individual tillarimiz o'ziga xos, moslashuvchan vositalar bo'lib, ularning har biri o'zi rivojlangan muhit tomonidan shakllantiriladi va o'zgartiriladi[21].

Psixolog Maykl Korballis rekursiyaga quyidagicha ta'rif beradi: Rekursiya – bu g'oyalarni g'oyalar ichiga joylashtirish qobiliyatimizdir. U “Rekursiv ong: Inson tili, tafakkuri va sivilizatsiyasining kelib chiqishi” asarida rekursiv fikrlash qobiliyati inson ongini boshqa jonzotlaridan ajratib turadigan asosiy xususiyat ekanligini aytadi[20].

Tadqiqotchi Merlin Donaldning ma'lumot berishicha, insonlarning fikrlashi, miya hajmi va fiziologiyasidagi o'zgarishlar miya rivojlanishining tezlashishini talab qildi, tadqiqotchining fikriga ko'ra, buni miyaning “plastikligi” – uning funksional moslashishi bilan izohlash mumkin[21].

Nutqdan tashqi belgilarga o'tish, til rivojlanishining o'zi biologik o'zgarishlarni rag'batlantirgan va bu o'zgarishlar bizni yanada o'zgartiradigan qayta aloqa zanjirini keltirib chiqargan bo'lishi mumkin. Antropolog Jon Xouks tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, so'nggi 5000-10000 yil ichida inson genetikasidagi evolyutsion o'zgarishlar avvalgiga qaraganda 100 barobar tezdir[20]. Yuqoridagi nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida insonlar nima haqida o'ylashlari va muloqotda shu o'ylanganni qanday ifodalashlari o'rtasida farq borligi aniqlandi. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkinki, bu ikki faoliyat o'rtasida qanday farq bor? Bizning fikrimizcha, biz – insonlar go'daklik vaqtlaridan boshlab, olam haqida aniq so'zlarni tushunishimizdan oldin, ularni qanday talaffuz qilishimiz haqida o'ylaymiz. Bu holat shaxsning psixologiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, uning ruhiyatiga ta'sir qilmasligi lozim[13].

Insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishayotganda turli tillardan foydalanadilar. Bu tillar bir-biridan ko'p jihatdan farq qiladi. Ongni o'rganish jarayonida faylasuf, antropolog, tilshunos va psixologlar bir nechta qarama-qarshiliklarga duch keldilar. Ularni chuqur mulohaza qilishga majbur qilgan savollar quyidagilardan iborat edi: Biz muloqotga kirishayotgan tillarimiz dunyoqarashimiz, fikrlashimiz va hayot tarzimizni shakllantiradimi? Boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi insonlar tafakkur tarzi o'rtasidagi farq ularning turli til vakili bo'lgani sabablimi? Yangi tillarni o'rganish tafakkur tarzimizni o'zgartiradimi? Poliglotlar (ko'p tillarda so'zlashuvchilar) turli tillarda gaplashganda boshqacha fikr yuritadilarmi? Bu savollar yuzasidan yaqin vaqtlargacha oz miqdorda empirik ishlar olib borilgan. Uzoq vaqt davomida til tafakkurni shakllantirishi mumkinligi haqidagi g'oya farazligicha qolgan va ko'p hollarda noto'g'ri deb qaralgan. Yuqoridagi savollarga javob topish maqsadida Stendford universiteti tadqiqotchilari bel bog'laganlar. Ular izlanishlarining obyekt sifatida Xitoy, Gresiya, Chili, Indoneziya, Rossiya, Avstraliyadagi yashovchi xalqlarning tilini o'rganib, izlanishlari natijasida shunday xulosaga keldilar: “Turli tillarda so'zlashuvchilar haqiqatan ham boshqacha fikr yuritadilar va dunyoga boshqacha nigoz bilan qaraydilar”[20]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Garvard universiteti psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, biz muloqotga kirishayotgan tilimiz nafaqat fikrlashimizga, balki o'zimizning yashirish qobiliyatlarimizga ham ta'sir qiladi. Garvard universiteti aspiranti Oludamini Ogunnaike o'z izlanishlari natijasidagi quyidagicha xulosaga keladi: “Boshqa tilda gapirish boshqa hayotga egalik qilish demakdir”[24].

Ko'plab olimlarning fikricha, til va tafakkur bir-birini taqozo qiladi. Ya'ni tafakkursiz til bo'lmaydi va tilsiz fikrlash mumkin emas. Ko'p yillik, hatto, ko'p asrlik izlanishlar, tajribalarga tayanib aytilgan bu fikrlarga biz ham qo'shilamiz.

Tilshunoslikda nutq va muloqot, ularda nutq qobiliyatining shakllanishi, individual tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va shaxslar tilidagi yoshga bog'liq o'zgarishlar tilshunoslikning ontolingvistika bo'limida o'rganib kelindi. Uzoq vaqtlar davomida g'arb va sharq allomalarining olib borgan lingvistik tadqiqotlari o'zga davlatlarda va turli vaziyatlarda olib borilgan bo'lib, natijalari ham bir-biridan farq qilgan. Xususan, Yunonistonda yashab ijod etgan faylasuf Aristotel “Ritorika” asarida nutqqa alohida to'xtalgan va uni tashkil qiluvchi *etos*, *logos*, *pafos* tushunchalarini yoritgan[1].

Olimning ta'rifiga ko'ra, *etos* – etik pozitsiyaning inson axloqi bilan bog'liqligini, *logos* – suhbatdoshga ta'sir o'tkazuvchi ma'noni, *pafos* – muloqotning maqsadini va uning vaziyatiga to'g'ri

keladigan iboralar turini izohlaydi. Aristotel notiq va tinglovchilarning munosabatida nozik psixologik izohlar va nutqda qo'llanilishi kerak bo'lgan yuqoridagi uchta sifatni alohida ta'kidlaydi. Uning ma'lumotiga ko'ra "Sofizm otasi" nomini olgan Gorgias o'ziga xos nutq uslubini yaratgan va o'rgatgan birinchi notiq hisoblangan[1].

Aristotel "Ritorika to'g'risi"dagi risolasida Gorgiasga "keng tarqalgan istehzo" deb ta'rif bergan[1]. Gorgias jiddiylikka hazil bilan, hazilga jiddiylik bilan javob berishni tavsiya qilganini ta'kidlaydi. U ritorik, siyosiy nutq, Yunoniston birligi haqidagi nutq, urushda halok bo'lgan afinaliklarning dafn marosimi uchun maxsus nutq turlarini aytib o'tgan[1]. Gorgias nutqning ruhdagi ta'sirini, giyohvand moddalarning tanadagi ta'siriga o'xshatadi[9].

Mashhur nemis filologi, faylasuf, tilshunos Vilgelm fon Gumboldt nutqiy faoliyat va tilning jamoa va shaxs munosabatlarini bog'lashga xizmat qilishi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Uning e'tirof etishicha, tillar xalqlar va shaxslarning ijod mahsuli, til nutqiy faoliyat jarayonida vujudga keladi[1]. Vilgelm fon Gumboldt til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini ular bajaradigan vazifalarda ko'radi. Uning muhim kashfiyoti, faoliyatning til dunyosiga ko'chishi haqidagi g'oyasidir.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Har bir fanning paydo bo'lgan va rivojlangan davri bo'lganidek, ontolingvistikaga ham Rossiyada tamal toshi qo'yilgan. Shu jumladan, XX asrning oxirlarida ontolingvistika bir nechta rivojlangan yosh ilmiy fanlar qatoriga kiradi. Ontolingvistika fanining asosiy obyekti nutqning faoliyatini o'rganishni taqozo etadi. Ontolingvistika fani bo'yicha Yevropa va AQSh universitetlarida darslik va o'quv qo'llanmalari mavjud bo'lib, u fan sifatida o'qitila boshlangan. S.Seytlinning ma'lumotiga ko'ra, XX asrning 60-70 yillarida psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi bilan nutq ontogoneziga qiziqish qaytadan paydo bo'ldi va shu bilan nutq ontogonezini o'rganish boshlandi[6]. D.Slobin[5], M.Baurmenlar[7] nutq ontogonezini o'rganishda Rossiyadagi mavjud tadqiqotlarga tayandilar. Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning barchasi o'z tadqiqotlarida rus olimlari (L.S.Vigotskiy[7], A.R. Luriya[17], A.N.Gvozdev[3]) ishlarining ingliz tiliga tarjima qilingan variantlariga asoslanganlar.

XULOSA

Qisqa qilib aytganda, nemis tilshunoslarining izlanishlarida kompleks yondashuv ko'zga tashlanadi: ularning asarlarida nutqni rivojlantirishning psixologik, pragmatik, sotsiologik omillari hisobga olingan hamda bolalar nutqining morfologik, sintaktik tuzilishi tahlili berilgan, bolaning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni tahlil qilingan, shu bilan birga, kattalar uchun bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha didaktik maslahatlar berilgan. I.A.Boduen de Kurtene tilning mohiyati nutq faoliyatida ochilishini ta'kidlab, tilning ishlash mexanizmini tushunish va uni ilmiy tekshirish usullarini yaratish orqali tilshunoslikda ulkan o'zgarishlar qildi[4]. Olim uzoq yillar davomida bir necha Hind-Evropa tillarini o'rgangan va ularning barchasining fonetik xususiyatlarini yozib olgan. U slavyan tillar tipologiyasiga oid kashfiyotlar qilish bilan birga, bevosita Qozon tilshunoslik maktabi shakllanishiga asos solgan va lisoniy tizim va uning paydo bo'lishini farqlagan. Biz ham hozirgi kundagi muhim bo'lgan bolalar nutqining xususiyatlarini o'rganish masalasida amalda bo'lgan ilmiy izlanishlarga asoslangan holda o'rganish o'rinli deb hisoblaymiz. Tilshunoslikda muloqot yuz yildan ortiq vaqtdan buyon o'rganilib kelinmoqda. Bu davr mobaynida bolalar nutqini o'rganish sohasining tadqiqot usullari, umumiy nazariy yo'nalishlari o'zgarib bordi. Lekin muloqot nazariyasini o'rganish davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2012.
3. Гвоздев А.Н. Усвоение ребенком родного языка. / сб. «Детская речь», изд. Московского института экспериментальной психологии, 1927.
4. Виноградов В.В. Бодуэн де Куртенэ И.А. // И.А. Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию. Том I. М.: Изд-во Академии наук СССР, 1963.
5. Словин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. – М.: Прогресс, 1976.
6. Цейтлин С.Н. Ko'rsatilgan manba. O'sha betlar.
7. Bowerman Melissa, Levinson Stephen C. 2001. Language Acquisition and Conceptual Development. Cambridge: Cambridge University Press. 2014.
8. Goziyev E.G. Psixologiya (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

TILSHUNOSLIK

9. Gorgias. "Encomium of Helen." The Norton Anthology of Theory and Criticism. Eds. Vincent B. Leitch, et al. – New York: W.W. Norton & Company, 2001.
10. Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека «Дубна». № 4. 2011. – С. 159-187. Электронная версия: // <http://www.psyanima.su/journal/2011/4/2011n4a5/2011n4a5.pdf>
11. Davlatova Hulkaroy Uktamovna. Psycholinguistic research of children's speech by scientists. Researchjet Journal of Analysis and Inventions. DOI: <https://doi.org/10.17605/osf.io/ud96m> Volume 2, Issue 5 May, 2021
12. Davlatova Hulkaroy Uktamovna. BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA'SIRI. FarDU Ilmiy Xabarlari. 25-02-2021. <https://www.slibrary.uz/ru/article/view?id=20205>
13. Davlatova Khulkaroy. The role of psycholinguistics in the study of a foreign languages. international engineering journal for research & development. VOL. 8 NO. 4 (2023): VOLUME 8
14. Mecacci L., Yasnitsky A. (2011). Editorial Changes in the Three Russian Editions of Vygotsky's «Thinking and Speech» (1934, 1956, 1982): Towards Authoritative and Ultimate
15. Mecacci L., Yasnitsky A. (2011). Editorial Changes in the Three Russian Editions of Vygotsky's «Thinking and Speech» (1934, 1956, 1982): Towards Authoritative and Ultimate English Translation of the book //
16. English Translation of the book // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека «Дубна». № 4. 2011. – С. 159-187.
Электронная версия: // <http://www.psyanima.su/journal/2011/4/2011n4a5/2011n4a5.pdf>
17. Proctor H. (2020). Psychologies in Revolution: Alexander Luria's 'Romantic Science' and Soviet Social History. Cham: Palgrave Macmillan.
18. <https://humanjourney.us/the-evolution-of-language-section/thought-and-language/>
19. <https://humanjourney.us/the-evolution-of-language-section/thought-and-language/>
20. https://www.edge.org/conversation/lera_boroditsky-how-does-our-language-shape-the-way-we-think
21. <https://humanjourney.us/the-evolution-of-language-section/thought-and-language/>
22. https://www.edge.org/conversation/lera_boroditsky-how-does-our-language-shape-the-way-we-think
23. https://www.edge.org/conversation/lera_boroditsky-how-does-our-language-shape-the-way-we-think
24. <https://www.sciencedaily.com/releases/2010/11/101103111206.htm>